



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

“Ikkinchi ustozlar milliy forumi”ga tayyorgarlik
ko‘rish va o‘tkazish to‘g‘risida

2023-2024-o‘quv yili oldidan maktabgacha va maktab ta‘limi muassasalari rahbarlarining mas‘uliyati va tashabbuskorligi, tizimda faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning kasbiy mahoratlarini yanada oshirish, ilg‘or tajribalarini targ‘ib qilish, o‘quv dasturlari va darsliklardagi yangiliklarni tizim xodimlariga yetkazish hamda yangi o‘quv yilida ta‘lim-tarbiya sifatini yanada yaxshilash yuzasidan muhim va ustuvor yo‘nalishlarni belgilab olish maqsadida **buyuraman**:

1. 2023-2024-o‘quv yili oldidan **“Ikkinchi ustozlar milliy forumi”** (keyingi o‘rinlarda – forum) joriy yilning quyidagi muddatlarida:

8-9-avgust kunlari forumning respublika bosqichi Toshkent shahrida;

15-17-avgust kunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va barcha viloyatlarda;

22-24-avgust kunlari tuman (shahar)larda fan yo‘nalishlari bo‘yicha sho‘ba yig‘ilishlari;

28-29-avgust kunlari umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida pedagogik kengashlar tarzida tashkil etilsin.

2. Forumning respublika bosqichini o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar vazirlikning budget mablag‘lari va UNESCO xalqaro tashkilotining grant mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

“Ikkinchi ustozlar milliy forumi”ga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha respublika ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tomonidan forumning respublika bosqichiga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar smetasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. O‘quv jarayonini metodik ta‘minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva), Maktabgacha ta‘lim agentligi (A.Shin), Ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari agentligi (A.Ubbiyev), Respublika ta‘lim markazi (Sh.Sattarov), Maktabgacha ta‘lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (F.Keldibekov)ga:

forum ishtirokchilari ro‘yxatini shakllantirish va ularning ishtirokini ta‘minlash;

forum dasturi asosida trenerlar hamda forum materiallarini tayyorlash va joriy yilning 5-avgustiga qadar ishchi guruhga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

5. Maktabgacha ta‘lim agentligi (A.Shin), Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (A.Qirg‘izboyev), Maktabgacha ta‘lim tizimi faoliyatini

muvofiqlashtirish bo‘limi (F.Keldibekov) forumning respublika bosqichiga hududlardan jalb qilingan ishtirokchilarni kutib olish va maktabgacha ta‘lim muassasalari rahbar va mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti hamda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti yotoqxonalari binosiga joylashtirish va tadbir jarayonlariga to‘liq ishtirokini ta‘minlash vazifalari yuklatilsin.

6. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (Z.Togayeva), O‘quv jarayonini metodik ta‘minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva) bir hafta muddatda ta‘lim sohasida ilg‘or tajribalari bilan namuna ko‘rsatgan va yuqori natijalarga erishgan soha xodimlarini tarmoq mukofotlari bilan taqdirlash bo‘yicha rahbariyatga taklif kiritsin.

7. Mazkur buyruqning 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan sarf-xarajatlar vazirlikning 2023-yil uchun markazlashgan tadbirlarning xarajatlar smetasi mablag‘lari doirasida amalga oshirilsin.

8. Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi (J.Mannonov) mazkur buyruqning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan sarf-xarajatlar smetasiga asosan davlat xaridlarini belgilangan tartibda amalga oshirsin.

9. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (F.Jamuratova) tuzilgan shartnomalarga muvofiq o‘rnatilgan tartibda to‘lovlar amalga oshirilishini ta‘minlasin.

10. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalari boshliqlariga:

forumning hududiy o‘quv-seminarlari, tuman (shahar) sho‘ba yig‘ilishlari va yalpi yig‘ilishlari hamda umumiy o‘rta ta‘lim muassasalaridagi pedagogik kengashlarini belgilangan muddatlarda va yuqori saviyada tashkil etilishini ta‘minlash;

hududiy o‘quv-seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanilishini tashkil etish;

tuman (shahar) sho‘ba yig‘ilishlari jadvali, o‘tkazilish joyi, dasturi va ishtirokchilar tarkibini tuman (shahar)lar kesimida tasdiqlash;

forumning joylarda o‘tkazilishi va natijalari to‘g‘risidagi batafsil hisobotlarni joriy yilning 10-sentabriga qadar Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi va Respublika ta‘lim markaziga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

11. Forum ishtirokchilarining xizmat safari bilan bog‘liq sarf-xarajatlari asosiy ish joyidan to‘lanishi belgilab qo‘yilsin.

12. Axborot xizmati (D.Sobirova) forumga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish jarayonlari hamda o‘quv-seminarlarini ommaviy axborot vositalari, vazirlikning ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalari orqali keng jamoatchilikka yetkazsin.

13. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil 14-iyuldagi,
206-son

**“Ikkinchi ustozlar milliy forumi”ga tayyorgarlik ko‘rish va uni
o‘tkazish bo‘yicha respublika ishchi guruhi
TARKIBI**

T/r	F.I.Sh.	Lavozimi
1.	U.Sharifxodjayev	Vazirning birinchi o‘rinbosari, ishchi guruhi rahbari
2.	A.Shin	Vazirning birinchi o‘rinbosari, Maktabgacha ta’lim agentligi direktori, a’zo
3.	D.Norboyeva	O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi boshlig‘i, ishchi guruhi kotibi
4.	F.Keldibekov	Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i, a’zo
5.	D.Sobirova	Axborot xizmati rahbari, a’zo
6.	A.Ubbiyev	Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi, a’zo
7.	Sh.Sattorov	Respublika ta’lim markazi direktori, a’zo
8.	D.Davidova	Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi, a’zo
9.	A.Qirg‘izboyev	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, a’zo

Izoh: Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi umumta’lim muassasalari rahbarlari tashkiliy qo‘mita a’zosi hisoblanadi.